

“Ikkinchi jahon urushida erishilgan g‘alabaga o‘zbekistonliklarning qo‘shgan hissasi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya o‘tkazildi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi huzuridagi “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi hamkorligida “Ikkinchi jahon urushida erishilgan g‘alabaga o‘zbekistonliklarning qo‘shgan hissasi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya o‘tkazildi.





Ilmiy-amaliy konferensiya “G’alaba bog’i” yodgorlik majmuasi tarkibidagi “Shon-sharaf” Davlat muzeyida tashkil etildi.

Konferensiyada 10 dan ortiq ma’ruzalar tinglandi. Taqdim etilgan ma’ruzalarda ikkinchi jahon urushida o’zbekistonliklarning qo’shgan hissasi, mard va olijanob xalqimizning jasorati haqida ilmiy mulohazalar bayon etdilar. Shuningdek, xalqaro konferensiyada Rossiya, Qozog’iston, Qirg’iziston davlatlaridan ham nufuzli olimlar ishtirok etishdi.